SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.01/2025.27.12.Ped.10.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

KANDAXAROV MIRJALOL ABDIMUROT O‘G‘LI

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING INNOVATSION FAOLIYATGA NISBATAN RISKOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 378.091.3:001.895

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Kandaxarov Mirjalol Abdimurot o‘g‘li
Bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentliligini rivojlantirish metodikasi 3

Кандахаров Миржалол Абдимурот угли
Методика развития рискологической компетентности будущих учителей к инновационной деятельности..... 23

Kandaharov Mirjalol Abdimurot ugli
A methodology for developing prospective teachers’ risk management competence for innovative activity 47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 51

SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.01/2025.27.12.Ped.10.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

KANDAXAROV MIRJALOL ABDIMUROT O‘G‘LI

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING INNOVATSION FAOLIYATGA NISBATAN RISKOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi B2025.3.PhD/Ped10841 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdpi.uz) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Usmonov Saydiaxmad Saydullayevich** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Yusupov Kanisbay Abilovich** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
	Qaraxonova Lobarxon Musaxonovna pedagogika fanlari doktori (DSc)
Yetakchi tashkilot:	**Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.01/2025.27.12.Ped.10.01 ilmiy kengashning 2026-yil “13” noyabr kuni soat 15 00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140100, Samarqand shahar, Spitamen shoh ko‘chasi 166-uy.) Tel.: (99895) 826-82-12; e-mail:devonxona@samdpi.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (21541-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 140100, Samarqand shahar, Spitamen shoh ko‘chasi 166-uy.) Tel.: (99895) 826-82-12;

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “31” oktabr kuni tarqatildi.
(2026-yil “31” oktabr dagi 22-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.A. Ibragimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

E.A. Abdumannotov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sh.Sh. Negmatova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta’lim tizimida pedagogik innovatsiyalar, raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, ma’lumotlar xavfsizligi, inklyuzivlik, texnologik tengsizlik va ta’lim sifatiga ta’sir qiluvchi noaniqliklarni oldindan baholay oladigan o‘qituvchilarni tayyorlashga ustuvorlik qaratilmoqda. Ta’limni muvaffaqiyatli o‘zgartirish strategiyasida “barcha insonlarga o‘qish, ishlash va yashash imkonini beruvchi ko‘nikmalarni rivojlantirish”[1] vazifasi markaziy konstrukt sifatida belgilangan. Shu sababli, o‘qituvchining pedagogik faoliyatida yuzaga keladigan didaktik, texnologik, axloqiy, psixologik, tashkiliy va huquqiy xavflarni aniqlash, ularni baholash, kamaytirish, monitoringini yuritish va mas’uliyatli qaror qabul qilishga xizmat qiluvchi integrativ kasbiy ko‘nikmalar dolzarblik sifatida talqin etilmoqda.

Dunyo ilmiy tajribasida tadqiq etilayotgan “risk-based pedagogy”, “innovation risk management” va “adaptive decision-making under uncertainty” kabi modullar bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim jarayonida yuzaga keladigan xavf, noaniqlik va ehtimoliy risklarni boshqarish salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Mazkur modullar mazmunida tizimli tafakkur, kognitiv moslashuvchanlik va barqarorlikka yo‘naltirilgan qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishga ustuvorlik berilmoqda. Shu bilan birgalikda, bo‘lajak o‘qituvchilarda faoliyatiga nisbatan qadriyatli, axloqiy va xavfsiz pedagogik pozitsiyani mustahkamlash, kasbiy kompetentlikni innovatsion faoliyat xavflari bilan bog‘liq holda rivojlantirish, riskka yo‘naltirilgan pedagogik tafakkurni shakllantirish usullarini tadqiq etishga qaratilgan tadqiqotlarga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Mamlakatimizda oliy pedagogik ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, moddiy-texnik, huquqiy va o‘quv-me’yoriy bazasini kuchaytirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni singdirish, ta’lim, ilm-fan va amaliyot integratsiyasini ta’minlash, zamonaviy fikrlaydigan, faoliyatini tushunadigan, anglaydigan hamda kuchli bilim, ko‘nikma va malakaga ega o‘qituvchilarni tayyorlashga doir tizimli ishlar olib borilmoqda. Pedagog ta’lim sifatini oshirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri etib “pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ta’lim dasturlari va darsliklarini takomillshtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish”[2] vazifasi belgilangan. Shu bois, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda raqamli ta’lim muhiti uchun zaruriy kompetensiyalarni rivojlantirish, o‘yin-tadqiqot shaklidagi o‘qitishni tashkil etish, o‘quv mashg‘ulotlarini kvest texnologiyasi asosida loyihalashga imkon beruvchi kognitiv, integrativ va motivlashtiruvchi metodikalarni amaliyotga kiritish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son

[1] Transforming technical and vocational education and training for successful and just transitions: UNESCO strategy 2022-2029 // UNESCO, 2023. – P. 29.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-son Qarorii. – QHMMB, 22.06.2022-y., 07/22/289/0562-son.

“2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2025-yil 28-apreldagi PF–73-son “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son “Mamlakat taraqqiyotning 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2020-yil 27-fevraldagi PQ–4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 21-iyundagi PQ–289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda kasbiy kompetentlilikni barqaror shakllantirish, pedagogik jarayon va texnologiyalarni loyihalashtirish, kognitiv, integrativ va kommunikativ yondashuvlar asosida tashkil etish, ta’lim oluvchilarda loyihalash va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish muammolari yuzasidan X.Ibraimov, G.Fayzullayeva, A.Ibragimov, Sh.Mustafayev, L.Qoraxonova, O.Qo‘ysinov, Sh.Urakov, N.Shodiyevlar tadqiqot ishlari olib borishgan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, uning metodik tizimi, bosqichlari, pedagogik shart-sharoitlari, texnologik asoslari, o‘z-o‘zini rivojlantirishga doir izlanishlar G.Ibragimova, M.Jumayeva, A.Kudaynazarov, I.Mamajonov, N.Misirova, Z.Nurmamatovlar, riskologik kompetentlilik, boshqarish, xavf omillari, ularni bashoratlash, riskka moyillik va kasbiy xavflarga qarshi turish fazilatlarini o‘rganishga oid tadqiqotlar D.Jabborova, G.Radjabova, Sh.Xalmuratova, B.Xodjayev, M.Xolboyeva, G.Yuldasheva kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligida G.Andreyeva, N.Asxadullina, Ye.Bondarevskaya, A.Golovkina, A.Novikov, N.Postalyuk, A.Prichinin, O.Tavstuxa, T.Yuzefavichuslar riskologik kompetentlilik, pedagogik risk, innovatsion faoliyatdagi xavflar, jarayonda yuzaga keladigan noaniqliklarni bartaraf etish hamda bo‘lajak o‘qituvchilarni riskologik tayyorgarligiga erishish masalalarini tadqiq qilishgan.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan P.Hovard, Ch.Becker, E.Creely, D.Henriksen, P.Grachianolar tomonidan pedagogik innovatsiya va risklar o‘rtasidagi bog‘liqlik, noaniqlik va xavf omillari, ijodiy xatarlar, A.Valder, H.Ran,

F.Hermelin, D.Vizman-Man, K.Zeichnerlar hamkorlik, innovatsion iqlim, yangi o‘qitish metodlarini qabul qilish, noaniqlikni kasbiy o‘rganish qismi sifatida qabul qilish imkoniyatlari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, o‘qitish va faoliyat yuritishning zamonaviy yondashuvlarini o‘zlashtirish, riskologik kompetentliligini rivojlantirish, o‘z-o‘zini kasbiy yuksaltirishga oid nazariy manbalar mavjudligiga qaramay, innovatsion faoliyatning risk bilan bog‘liq tabiatini o‘rganish, riskologik kompetenlilikning komponentlari, didaktik imkoniyatlarini belgilash, modeli va metodikasini takomillashtirishga doir muammolarning saqlanib qolayotganligi mazkur yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish zaruratini belgilaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Xorijiy va mahalliy ilg‘or tajribalar hamda texnologiyalardan foydalanib uzluksiz ta’lim samaradorligini oshirish” (2021-2025-yy.) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo‘lajak o‘qituvchilarda riskologik kompetentlikni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini pedagogik turkum fanlari mazmunini funksional integratsiyalash asosida aniqlashtirish;

bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentligini rivojlantirish modelini tarkibiy qismlarini muvofiqlashtiruvchi dinamik tizim sifatida takomillashtirish;

bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentligini rivojlantirish samaradorligini aniqlashtirish hamda tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentliligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayonlari belgilanib, pedagogik tajriba-sinov ishlariga Samarqand davlat pedagogika instituti, Buxoro davlat pedagogika instituti va Navoiy davlat universitetlarining 704 nafar talabalari jalb qilingan.

Tadqiqotning predmetini bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentliligini rivojlantirish mazmuni, vositalari, shakl va metodlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida muammoga doir huquqiy-me’yoriy hujjatlar va o‘quv-metodik adabiyotlarni o‘rganish, pedagogik kuzatuv, yarim strukturaviy suhbat, so‘rovnoma, test, qiyosiy tahlil, pedagogik tajribalarni aniqlash, ilmiy umumlashtirish, modellashtirish, ekspert baholash va matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo‘lajak o‘qituvchilarda riskologik kompetentlikni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari pedagogik turkum fanlari mazmunini funksional integratsiyalash, xavfni identifikatsiyalash, modellashtirish, baholash va boshqarish ko‘nikmalarini nazariy bilim, amaliy mashqlar, refleksiya va pedagogik amaliyot orqali shakllantirish hamda adaptiv tajriba va refleksiv mahoratni mujassamlashtiruvchi transversal kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirish asosida aniqlashtirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentligini rivojlantirish modeli maqsad, nazariy, mazmun, jarayon va samaradorlik qismlarini muvofiqlashtiruvchi dinamik tizim sifatida innovatsion faoliyat hamda pedagogik xavf-xatarli vaziyatlarni bartaraf etishning muqobil ssenariylarini mustaqil loyihalash asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi adaptiv-harakatli, analitik-loyihaviy va refleksiv-prognostik funksiyalarni o‘zaro sintezlash hamda interaktiv keyslar, trening ishlanmalari, refleksiv topshiriqlardan iborat metodik ta’minotni o‘quv jarayoniga produktiv uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarning riskologik kompetentligi va innovatsion faoliyati natijadorligi o‘rtasidagi korrelyativ bog‘liqlik hamda pedagogik xavfni destruktiv omildan konstruktiv o‘sish resursiga transformatsiyalash samaradorligi korrelyatsion tahlilni eksperimental tekshiruv bilan birlashtirish asosida aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyat jarayonida yuzaga keladigan xavflarni aniqlash, tahlil qilish, baholash, boshqarish hamda refleksiv qayta loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan interaktiv keyslar, trening ishlanmalari va refleksiv topshiriqlardan iborat metodik ta’minot ishlab chiqilgan;

pedagogik turkum fanlari mazmuniga riskologik komponentlarni integratsiyalash, pedagogik xavf-xatarli vaziyatlarni modellashtirish, ularning muqobil yechimlarini ishlab chiqish va asoslashga xizmat qiluvchi amaliy-metodik topshiriqlar tizimi shakllantirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentliligini aniqlash va baholash imkonini beruvchi diagnostik vositalar majmuasi, kompetentlikning mezon, ko‘rsatkich va darajalari asosida natijalarni monitoring qilish mexanizmi ishlab chiqilgan;

“Umumiy pedagogika” nomli darslik hamda bo‘lajak o‘qituvchilarda riskologik kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha uslubiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentliligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga tizimli yondashilganligi, metodologik tamoyillarga tayanilganligi, falsafa, psixologiya, pedagogikaga oid bilimlarga asoslanilganligi, nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi

tasdiqlanganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentliligini rivojlantirish tushunchasining konseptual-metodologik asoslari tizimlashtirilganligi, pedagogik turkum fanlari mazmunini uyg‘unlashtirish orqali kengaytirilganligi, maqsad, nazariy, mazmun, jarayon va samaradorlik qismlarini muvofiqlashtiruvchi modelning loyihalanganligi, pedagogik shart-sharoitlar, tamoyillar, omillari va mezonlarning aniqlashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentliligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi interaktiv keyslar to‘plami, trening ishlanmalari va refleksiv topshiriqlar tizimi ishlab chiqilganligi, riskologik kompetentlik darajalari aniqlanligi va ularni baholash imkonini beruvchi diagnostik vositalar yaratilganligi hamda erishilgan natijalardan oliy pedagogik ta’limda keng foydalanish, me’yoriy-huquqiy hujjatlar va o‘quv mazmunini shakllantirish va metodik ta’minotni kuchaytirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida:

bo‘lajak o‘qituvchilarda riskologik kompetentlikni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari pedagogik turkum fanlari mazmunini funksional integratsiyalash, xavfni identifikatsiyalash, modellashtirish, baholash va boshqarish ko‘nikmalarini nazariy bilim, amaliy mashqlar, refleksiya va pedagogik amaliyot orqali shakllantirish hamda adaptiv tajriba va refleksiv mahoratni mujassamlashtiruvchi transversal kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirish asosida aniqlashtirishga doir tavsiyalar “Umumiy pedagogika” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 3277-2869-3c07-dd19-9f36-2959-6398-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilarda xavfni identifikatsiyalash, modellashtirish, baholash va boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda transversal kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini bergan;

bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentligini rivojlantirish modeli maqsad, nazariy, mazmun, jarayon va samaradorlik qismlarini muvofiqlashtiruvchi dinamik tizim sifatida innovatsion faoliyat hamda pedagogik xavf-xatarli vaziyatlarni bartaraf etishning muqobil ssenariylarini mustaqil loyihalash asosida takomillashtirishga doir tavsiyalar “Umumiy pedagogika” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 3277-2869-3c07-dd19-9f36-2959-6398-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, tadqiqot modelini loyihalash, muammoli-risk vaziyatlarni muqobil ssenariylashtirish va pedagogik jarayonda sinab ko‘rish imkoniyati yaratilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi adaptiv-harakatli, analitik-loyihaviy va refleksiv-prognostik funksiyalarni o‘zaro sintezlash hamda interaktiv keyslar,

trening ishlanmalari, refleksiv topshiriqlardan iborat metodik ta’minotni o‘quv jarayoniga produktiv uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirishga doir tavsiyalar “Umumiy pedagogika” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 3277-2869-3c07-dd19-9f36-2959-6398-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilarda situativ qarorlar qabul qilish sifati, pedagogik sezgirlik va refleksiv mahoratni rivojlantirishning metodik bazasi kengaytirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarning riskologik kompetentligi va innovatsion faoliyati natijadorligi o‘rtasidagi korrelyativ bog‘liqlik hamda pedagogik xavfni destruktiv omildan konstruktiv o‘sish resursiga transformatsiyalash samaradorligi korrelyatsion tahlilni eksperimental tekshiruv bilan birlashtirish asosida aniqlashtirishga doir tavsiyalar “Umumiy pedagogika” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 3277-2869-3c07-dd19-9f36-2959-6398-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilarning riskologik kompetentligini diagnostika qilish va jarayon samaradorligini matematik-statistik baholash imkoniyati ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Taqdqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 11 ta ilmiy ishlar, shulardan, 1 ta darslik, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e’lon qilish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, 143 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil qilingan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ularning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, nashr ishlari hamda dissertatsiya tuzilishiga doir ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentliligini rivojlantirishning nazariy asoslari”**, deb nomlangan birinchi bobida bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida o‘rganilgan, shuningdek, riskologik kompetentlilikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari hamda pedagogik turkum fanlarining didaktik imkoniyatlari yoritilgan.

Zamonaviy shoroitlarda bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘zgaruvchan, raqamli, ijtimoiy va texnologik jihatdan murakkablashib borayotgan ta’lim muhitida metodik tayyorgarligi, mustaqil harakatlari va pedagogik qaror qabul qila olish ko‘nikmalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim

tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash mazmuni innovatsion faoliyat, refleksiv fikrlash, adaptiv pedagogik mahorat, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish va subyektiv pozitsiyani belgilovchi kompetensiyalarni rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda. Innovatsion faoliyat pedagoglik kasbining ajralmas tarkibiy qismi sifatida o‘qituvchining yangi pedagogik g‘oya, metod, texnologiya, baholash vositasi yoki muammoli vaziyatlar yechimini ishlab chiqishi, o‘quv jarayonida sinab ko‘rishi, natijasini tahlil qilishi va takomillashtirishni ifodalaydi. Ammo innovatsion faoliyat doimiy ravishda noaniqlik, ehtimoliy xatolar, kutilmagan oqibatlar, metodik nomuvofiqliklar, texnologik cheklovlar, o‘quvchilar tayyorgarligidagi tafovut va ta’lim natijalarini baholash ishonchliligi bilan bog‘liq bo‘lgan xavflarni yuzaga keltiradi.

Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligi zamonaviy texnologiyalarni bilish yoki foydalanish darajasidan chiqadi hamda ta’lim jarayonida yuzaga keladigan pedagogik risklarni oldindan ko‘ra olish, ehtimoliy salbiy oqibatlarini baholash, muqobil metodik qaror qabul qilish, xavfni kamaytirish yoki konstruktiv yechimga aylantirish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Mazkur ehtiyoj esa “riskologik kompetentlilik” tushunchasini pedagogik tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish zaruriyatini dalillaydi. Chunki, sohaga doir tadqiqotlarda riskologik kompetentlilik bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik xavfni identifikatsiya qilish, tahlil qilish, prognozlash, boshqarish va refleksiv baholashga yo‘naltirilgan integrativ kasbiy sifati tarzida qaraladi.

Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan tahlillar va o‘rganishlar natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentliligi bilan bog‘liq quyidagi bo‘shliqlar mavjudligi kuzatildi:

pedagogik turkum fanlari mazmunini bo‘lajak o‘qituvchilarda innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentlilikni rivojlantirishga integrativ yo‘naltirish holatining sustligi;

bo‘lajak o‘qituvchilarda risk-tahlil, ehtimoliy oqibatlarni bashoratlash va noaniq vaziyatlarda qaror qabul qilish bilan bog‘liq ko‘nikmalarining yetarli darajada tizimlashmaganligi;

ijodiy tashabbus, eksperiment va yangi yechimlarni sinashda tavakkalchilik, pedagogik xato, muvaffaqiyatsiz tajriba va noaniq natijani konstruktiv qayta ishlash madaniyati yetarlicha rivojlanmaganligi;

zamonaviy ta’lim muhitida raqamli platformalar, sun’iy intellekt vositalari, masofaviy ta’lim, o‘yinli va adaptiv ta’lim texnologiyalarining joriy etilishi natijasida yuzaga keladigan pedagogik risklarning yangi turlaridan to‘laligicha xabardor emasligi.

Mazkur holat bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentliligini rivojlantirish uchun innovatsion faoliyat va pedagogik risk o‘rtasidagi funksional bog‘liqlikni ilmiy asoslash, pedagogik turkum fanlari mazmunini funksional integratsiyalash, riskologik kompetentlilikning tarkibiy komponentlarini aniqlash, uning didaktik imkoniyatlari, metodlari, shakllari, vositalari hamda baholash mezonlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Mavzuga doir nazariy manbalar tahlili bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, innovatsion va riskologik kompetentlilik, pedagogik

riskologiya, ijodiy tavakkalchilik, tajriba va xatolar asoida o‘rganish masalalari bir qator olimlar tomonidan o‘rganilganligini ko‘rsatdi. Jumladan, Z.Sh.Nurmamatov, R.M.Haydarov, N.T.Misirova, M.B.Abduraxmanov, M.Zhanguzhinova, M.Thurlings, A.T.Evers, M.Vermeulen, G.Chen va B.Cui izlanishlarida asosiy e’tibor bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligi, innovatsion kompetentligi, yangi sharoitlarda ishlash va pedagogik innovatsiyalarga moslashishi, o‘quv jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashi, xulq-atvor va o‘z-o‘zini rivojlantirishga qaratilgan.

N.N.Asxadullina, I.V.Valeeva, E.E.Merzon, T.A.Yuzefavichus, A.E.Prichinin, L.N.Antonova, O.G.Tavstuxa, G.V.Stankevich, D.F.Jabborova va Sh.B.Xalmuratova tadqiqotlarining asosiy mohiyati o‘qituvchi tayyorlash jarayonida pedagogik riskni alohida metodologik kategoriya sifatida ajratish, riskologik kompetentlikni bevosita innovatsion faoliyatga tayyorgarlik bilan bog‘lash, unda xato, noto‘g‘ri qaror va noaniq vaziyatni boshqarish bo‘lajak o‘qituvchilarda riskni idrok etish, tahlil qilish, prognozlash va boshqarish kompetensiyasini shakllantirish bilan bog‘liq.

P.Howard, C.Becker, S.Wiebe, M.Carter, P.Gouzouasis, M.McLarnon, K.Ricketts, E.Creely, D.Henriksen, R.Crawford, M.Henderson, P.Mishra, P.Graciano, F.H.Lermen, F.M.Reichert, A.D.Padula, M.Kapur va E.Manalo kabi olimlar “riskologik kompetentlik” tushunchasini bevosita ishlatmasa ham, uning mazmuniga juda yaqin bo‘lgan ijodiy tavakkalchilik, samarali muvaffaqiyatsizlik, o‘qituvchi subyektivligi, noaniqlik, o‘ziga ishonch va innovatsiya bilan bog‘liq tavakkalchilik fenomenlarini chuqur o‘rgangan. Mazkur tadqiqotlar riskologik kompetentlikni innovatsion faoliyatdagi xatoni konstruktiv qayta ishlash, tajribani refleksiv o‘rganish va yangilikni iterativ takomillashtirish mexanizmi sifatida asoslashga xizmat qiladi.

J.K.Suh, J.Park, H.Lee, shuningdek, OECD va UNESCO tadqiqotlarida adaptiv tajriba, o‘zgarishlarni boshqarish, mas’uliyat, kasbiy mulohaza, refleksiv so‘rov, raqamli kompetensiya, AI etikasi va bo‘lajak o‘qituvchilarning noaniqlik sharoitiga moslashuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantirish muammolari ilgari suriladi.

Manbalar tahlili asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentliligi pedagogik xavfni konstruktiv tahlil obyekti, metodik qaror qabul qilish omili va kasbiy rivojlanish resursi sifatida boshqarishni ifodalaydi, degan xulosaga kelindi hamda mualliflik yondashuvi shakllantirildi: bo‘lajak o‘qituvchining integrativ kasbiy-shaxsiy sifati bo‘lib, innovatsion faoliyat jarayonida yuzaga keladigan ehtimoliy pedagogik risklarni bashoratlash, tizimli tahlil qilish, noaniqlik va kasbiy tavakkalchilik sharoitida kreativ, pedagogik jihatdan asoslangan va samarali qarorlar qabul qilish layoqatidir.

Innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentlilikni rivojlantirish bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion ta’lim g‘oyalari, metodlari, texnologiyalari va baholash vositalarini qo‘llashda yuzaga keladigan xavf va noaniqliklarni ilmiy asosda anglash, tahlil qilish, modellashtirish, baholash hamda boshqarishga tayyorlash jarayonidir. Shu sababli u innovatsion faoliyatning ichki harakatlantiruvchi mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Innovatsion faoliyat

yangilik yaratish, sinovdan o‘tkazish, joriy etish va natijani qayta tahlil qilish bosqichlaridan iborat bo‘lgani uchun unda pedagogik risk, metodik noaniqlik hamda texnologik moslik, kommunikativ barqarorlik va baholash ishonchliligi bilan bog‘liq muammoli holatlar doimiy ravishda mavjud bo‘ladi (1-jadval).

1-jadval.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda riskologik kompetentlilikni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari

Tarkibiy qismlar	Didaktik imkoniyatlari	Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashdagi o‘rni
Pedagogik turkum fanlari mazmunini funksional integratsiyalash	Fanlararo mazmunni maqsadli integratsiyalash, metodik tayyorgarlikni kuchaytirish hamda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash.	Fasilitatorlik, moslashuvchanlik, ijodiy tavakkalchilik, xatolardan qo‘rqmaslik, noaniqliklarni qabul qilish, o‘quv vaqtini maqbullashtirish va integrativ fikrlash qobiliyati mustahkamlanadi.
Xavfni identifikatsiyalash, modellashtirish, baholash va boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish	Ta’lim mazmuni modulli integratsiyalash, keys-stadi, faol, interaktiv, imitatsion, o‘yinli, muammoli va tadqiqotga asoslangan o‘qitish texnologiyalrini qo‘llash va raqamli ta’lim muhitidan unumli foydalanish.	Innovatsion vaziyatni tahlil qilish, risk manbalarini aniqlash, ehtimoliy ssenariylarni modellashtirish, baholash, muqobil metodik qaror tanlash, yechimni sinash va refleksiv tahlil ko‘nikmasi rivojlanadi.
Adaptiv tajriba va refleksiv mahoratni belgilovchi transversal kompetensiyani shakllantirish	Evristik, muammoli va refleksiv o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash, kutilmagan pedagogik xavf-xatarlarda kognitiv moslashuvchanlik, konstruktiv ta’lim muhitini yaratish.	O‘zgarishlarga moslashuvchanlik, zaruratga ko‘ra strategiyalarni tezkor o‘zgartirish, metodik xatolikni kasbiy o‘sish nuqtasiga aylantirish va mustaqillik shakllanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentlilikni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari pedagogik turkum fanlarini funksional integratsiyalash orqali kengayadi. Bu integratsiya nazariy bilim, psixologik tayyorgarlik, texnologik loyihalash, diagnostik baholash, pedagogik mahorat, refleksiv tahlil va tadqiqot metodologiyasini yagona kompetensiyaviy tizimga birlashtiradi. Natijada bo‘lajak o‘qituvchi innovatsion faoliyatda yuzaga keladigan pedagogik riskni tahlil qilinadigan, modellashtiriladigan, baholanadigan va boshqariladigan didaktik obyekt sifatida qabul qiladi. Mazkur yondashuvning ilmiy mohiyati pedagogik turkum fanlarini integrativ o‘qitish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda xavfni identifikatsiyalash, modellashtirish, baholash va boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda adaptiv tajriba, refleksiv mahorat va kasbiy subyektivlikka asoslangan transversal kompetensiyani shakllantirish asosida innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentlilikni rivojlantirishga imkon yaratadi.


Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentliligini rivojlantirishning amaliy-metodik**

tizimi”, deb nomlangan ikkinchi bobida bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentliligini rivojlantirish modeli, mazmuni, shakli, usullari va uni amaliyotga kiritish texnologiyasi bayon etilgan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentliligini rivojlantirish modeli oliy pedagogik ta’lim jarayonida innovatsion faoliyat mazmuni, pedagogik xavf-xatarli vaziyatlarni tahlil qilish, muqobil ssenariylarni mustaqil loyihalash va refleksiv baholash jarayonlarini yagona metodik majmuaga birlashtiruvchi dinamik tizim sifatida loyihalandi (1-rasm). Modelning bosh g‘oyasi innovatsion faoliyatning riskli tabiati, riskka yo‘naltirilgan tafakkur, adaptiv ekspertiza, refleksiv amaliyot, produktiv xatodan o‘rganish va o‘qituvchi subyektivligi konsepsiyalariga tayanadi. Chunki, ta’lim jarayonlarining innovatsion rivojlanishi turli kelib chiqishga ega risklar bilan bog‘liq bo‘lib, ularni kichik yo‘qotishlar bilan yengish uchun bo‘lajak o‘qituvchida riskka yo‘naltirilgan tafakkur shakllanishi alohida ahamiyat kasb etadi.


Model o‘zaro bog‘langan maqsad, nazariy, mazmun, jarayon va samaradorlik qismlaridan iborat. Ushbu qismlar bo‘lajak o‘qituvchining innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentliligini rivojlantirishda maqsadni belgilash, nazariy-metodologik asoslash, o‘quv mazmunini tanlash, metodik jarayonni tashkil etish va natijani baholash funksiyalarini bajaradi. Maqsad qismi bo‘lajak o‘qituvchilarda innovatsion faoliyat jarayonida yuzaga keladigan pedagogik, metodik, psixologik, kommunikativ, raqamli va tashkiliy xavf-xatarlarni nisbatan riskologik kompetentlilikni rivojlantirishga yo‘naltirish. Nazariy qismi jarayonning ilmiy-metodologik asoslarini belgilaydi hamda bir qator metodologik yondashuvlar va tamoyillar uyg‘unligiga tayanadi. Mazmun qismi zaruriy kompetensiyaviy komponentlar, funksiyalar va pedagogik turkum fanlarining integrativ mazmun birliklarini qamrab oladi. Jarayon qismi modelning amaliy yadrosi sifatida bosqichlar, metodlar, shakllar, texnologiyalar va vositalarini belgilaydi. Samaradorlik qismi tegishli mezon, ko‘rsatkich va darajalar asosida tajriba-sinov ishlari natijadorligini aniqlashga xizmat qiladi. Shu asosda loyihalangan model bo‘lajak o‘qituvchilarda innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentlilikni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini mustahkamlaydi hamda ularni shaxsiy-kasbiy jihatdan yetuk mutaxassis sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

O‘qituvchilarni tayyorlashda pedagogik mahorat, metodik tafakkur va o‘z-o‘zini rivojlantirish integratsiyasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu sababli tadqiqot davomida bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentliligini rivojlantirish metodikasini pedagogik mahoratning adaptiv-harakatli, metodik tafakkurning analitik-loyihaviy va o‘z-o‘zini rivojlantirishning refleksiv-prognostik funksiyalarini sintezlash asosida takomillashtirish maqsadga muvofiq, deb hisoblandi (2-rasm). Mazkur funksiyalar innovatsion pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan noaniqlik, ehtimoliy xato, didaktik nomuvofiqlik, kommunikativ murakkablik va texnologik cheklovlarni aniqlash hamda boshqarish jarayonini yaxlit metodik tizimga keltiradi.



1-rasm. Bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentliligini rivojlantirish modeli

Adaptiv-harakatli funksiya pedagogik mahoratning amaliy koʻrinishi sifatida boʻlajak oʻqituvchining innovatsion faoliyat jarayonida oʻzgaruvchan pedagogik vaziyatlarga moslashish, xavfli holatlarda tezkor va asosli pedagogik qaror qabul qilish, metodik harakatni vaziyat talabiga muvofiq qayta tashkil etish qobiliyatini ifodalaydi. Innovatsion faoliyatda pedagogik xavf koʻpincha yangi metod, texnologiya yoki ta'lim shaklini qoʻllash jarayonida yuzaga keladi. Bunday vaziyatlarda boʻlajak oʻqituvchining pedagogik mahorati uning riskni toʻgʻri idrok etishi, vaziyatni tez baholashi va pedagogik harakatni moslashtira olishida namoyon boʻladi.



2-rasm. Riskologik kompetentlikni rivojlantiruvchi funksiyalar integratsiyasi

Analitik-loyihaviy funksiya metodik tafakkur bilan bevosita bogʻliq ravishda boʻlajak oʻqituvchining innovatsion faoliyatdagi pedagogik risklarni ilmiy asosda tahlil qilish, ularning sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, ehtimoliy natijalarni oldindan modellashtirish va muqobil metodik yechimlarni loyihalash qobiliyatini bildiradi. Chunki metodik tafakkur oʻqituvchining maqsad, mazmun, metod, vosita, shakl, baholash va natija oʻrtasidagi ichki bogʻliqlikni koʻra olishi hamda ularni aniq pedagogik vaziyatga mos loyihalashi orqali namoyon boʻladi. Refleksiv-prognostik funksiya oʻz-oʻzini rivojlantirish bilan uzviy ravishda boʻlajak oʻqituvchining innovatsion faoliyat natijalarini tahlil qilish, pedagogik xato va xavf oqibatlaridan zaruriy xulosa chiqarish, keyingi faoliyat uchun rivojlanish yoʻnalishlarini belgilash va oʻz kasbiy oʻsish trayektoriyasini mustaqil rejalashtirish qobiliyatini anglatadi. Innovatsion faoliyatda har bir natija, shu jumladan muvaffaqiyatsiz urinish ham, oʻqituvchi uchun kasbiy rivojlanish manbai boʻlishi mumkin. Agar boʻlajak oʻqituvchi pedagogik xatoni yakuniy muvaffaqiyatsizlik sifatida qabul qilsa, innovatsion faoliyatga ehtiyotkor yoki passiv munosabat shakllanadi. Agar u xatoni tahlil qilsa, sabablarini aniqlasa, riskni qayta baholasa va keyingi faoliyatni prognoz qilsa, xato konstruktiv kasbiy oʻsish omiliga aylanadi.

Tadqiqot davomida boʻlajak oʻqituvchilarning innovatsion pedagogik faoliyatdagi didaktik, metodik, psixologik, kommunikativ, raqamli va tashkiliy xavflarni aniqlash, tahlil qilish, baholash, boshqarish hamda refleksiv qayta

loyihalashga o‘rgatuvchi interaktiv keyslar, trening ishlanmalari va refleksiv topshiriqlardan iborat metodik ta’minot ishlab chiqildi.

Interaktiv keyslar mazmuni bo‘lajak o‘qituvchini innovatsion faoliyatdagi pedagogik xavfni tahlil qilish, uning sabablarini aniqlash va muqobil yechim ishlab chiqishga yo‘naltirildi va quyidagi mavzularda shakllantirildi: “Yangiliklarni joriy qilishdagi ichki qarama-qarshilik”, “Guruhda ishlashda kommunikativ ziddiyat”. Interaktiv keyslar asosida har bir innovatsion qarorni maqsad, mazmun, metod, vosita, sharoit va kutiladigan natija bilan bog‘liq holda tahlil qilinishi sababli bo‘lajak o‘qituvchining metodik tafakkurini kuchaytirishga imkon beradi.

Trening ishlanmalari riskologik kompetentlikni faoliyatli-amaliy darajada rivojlantirishga sharoit yaratadi. Ular bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik xavfni boshqarish, qaror qabul qilish va riskli vaziyatda harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Tadqiqotda quyuidagi trening ishlanmalari loyihalandi: “Xavfli pedagogik holatlarda tezkor qaror qabul qilish”, “Innovatsion ta’limda riskli pedagogik vaziyatlarga samarali yondashuv”, “Riskni tanish va tavsiflash”, “Muqobil ssenariy ishlab chiqish”. Trening ishlanmalari riskli vaziyatda bilim, tezkor idrok, kommunikativ nazorat, hissiy barqarorlik, moslashuvchan harakat va pedagogik qarorni vaziyatga mos o‘zgartirishga qaratilganligi sababli bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik mahoratini rivojlantirishga imkon beradi.

Refleksiv topshiriqlar bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion tajribani ongli tahlil qilish, pedagogik xatoni kasbiy o‘sish resursiga aylantirish va keyingi faoliyatni oldindan rejalashtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Ular quyidagi mavzularda loyihalandi: “Refleksiv yozuv”, “Refleksiv so‘rovnoma”, “Xato tahlili”. Refleksiv topshiriqlar o‘z-o‘zini rivojlantirish bilan bevosita bog‘lanadi. Bo‘lajak o‘qituvchi o‘zining innovatsion faoliyatdagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, pedagogik xavfni qaysi bosqichda yetarli baholanmaganini ko‘radi, metodik qarorini qayta asoslaydi va keyingi harakatlar uchun aniq takomillashtirish yo‘nalishini belgilaydi.

Shuningdek, tadqiqotda muammoli o‘qitish, rolli o‘yinlar, refleksiv suhbat, raqobatli tahlil, munozara, ishchi daftar bilan ishlash, yarimta ssenariy, juftlik tahlili va qaror daraxti metodlaridan muhim metodik vosita sifatida foydalanildi.

Uchinchi bob **“Bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentligini rivojlantirish samaradorligi”**, deb nomlangan bo‘lib, tajriba-sinov ishlarining mazmuni va samaradorligi ifodalangan.

Tadqiqot ishi yuzasidan pedagogik tajriba-sinov ishlari Samarqand davlat pedagogika instituti (231 nafar), Buxoro davlat pedagogika instituti (225 nafar) va Navoiy davlat universitetlarida (248 nafar) tashkil qilindi va unda 704 nafar respondent-talabalar ishtirok etidi.

Aniqlovchi bosqichda bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentliligining boshlang‘ich holati aniqlandi. Unda bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga munosabatini aniqlash, pedagogik risk, riskologik kompetentlik, innovatsion xavf, metodik noaniqlik va refleksiv qaror qabul qilish haqidagi tasavvurlarini o‘rganish, innovatsion faoliyatda riskni identifikatsiyalash, modellashtirish, baholash va boshqarish ko‘nikmalarining boshlang‘ich darajasini aniqlash, eksperimental va nazorat

